

**Urganch davlat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish
"komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'lim sentabr oyi uchun olib
borilayotgan ishlar to'g'risida
HISOBOT**

2022 yil 25 sentyabrgacha

Urganch davlat universitetiga qarashli Akademik litseyida 2022-2023 o'quv yili boshlanishi munosabati bilan bayram tadbiri davlatimiz madhiyasi bilan boshlanib ketdi. Tadbirda litsey direktori A.Qutlimurodov hamda Urganch davlat universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i X.Shixovalar ishtirok etishdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i X.Shixova so'zga chiqib bugungi kunda oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hamda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish korrupsion xavf-xatar oldini olish yoshlarni qo'lida faqat bundan buyon o'qish, bilim olish kerakligini yoshlarga tushuntirib yangi o'quv yilida muvaffaqiyat va ulkan zafarlar tiladi.



2022 yil 08-sentabr kuni Urganch davlat universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashi “komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i X.Shixova va Tarix fakulteti 221 guruh tarix (rus) 25 nafar, 221-222 guruh tarix 70 nafar talabalari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda ta’lim sifatini yanada oshirish, odob-axloq va ichki-tartib qoidalariga bo‘ysunish, talabalarni bilimni oshirishda ma’lumotlarni to‘g‘ri yetkaza bilish va til o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish, korrupsion xavf-xatarlarni oldini olish, talabalar o‘rtasida hamda universitetda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish va bunda keng jamoatchilik ishtirokini kengaytirish kabi dolzarb masalalar yuzasidan atroflicha so‘z yuritdilar. Korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan qonun va qonunosti hujjatlari, “Halollik vaksinasi” tamoyili asosida muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi, yangi qonun hujjatlari mazmun-mohiyati haqida ma’lumotlar berdilar.

Bu kabi tadbirlarni o‘tkazishdan maqsad – yangi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bilan bir qatorda, yurtimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bu jarayonlarda jamoatchilik ishtirokini kengaytirishda muhim o‘rin egallaydi.





Urganch davlat universitetni 2022-2023 o'quv yil uchun ichki-tardib qoidalari, Odob-axloq kodeksi, Pedagog, xodimlar kasb odobnomasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish va adob – axloq komissiyasi faoliyatlari bo'yicha ichki buyruqlar to'g'risida ma'lumotlar barcha fakultetlar, kafedra majlislarida muhokamasi birinchi yig'ilishlarida ta'minlandi. Bayonnoma nusxalari olingan va ushbu hujjatlar bilan tanishganligi haqida qaydnomalar imzolanib joylardagi rahbarlarda saqlanmoqda.

9 sentabr sanasida Urganch davlat universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i X.Shixova va Iqtisodiyot fakulteti tyutori Y.Maxmudova BXA guruh talabalari bilan universitet korrupsiyaga qarshi kurash borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida batafsil ma'lumot berib, talabalarni qiziqtirgan savolga javob berib ularga @korrupsiyasizUrDu telegram kanaliga a'zo bo'lishlarini aytib o'tdi. Bunday uchrashuvlar boshqa fakultetlar kesimida ham bo'lib o'tmoqda.



14-15 sentabr kunlar Urganch davlat universitetiga 2022-2023-o'quv yili uchun ishga qabul qilinadigan pedagog xodimlarni suhbatdan o'tkazish jarayonlari bo'lib o'tdi. Suhbat Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda Odob-axloq komissiyasi a'zolari tomonidan amalga oshirildi. Jarayon yangi ishga qabul qilinayotgan yosh o'qituvchilar ishtirokida shaffof tarzda o'tkazildi.




Birlamchi ishga qabul qilinayotgan pedagoglar kafedrada ochiq dars o'tkazganliklari to'g'risida hujjatlar (PhD, IELTS) va bayonnomalardan ko'chirmalar komissiyaga taqdim qilingan.

Suhbat davomida ariza berganlar o'zlarining universitetda faoliyatini motivatsiyalari to'g'risida gapirdilar.



19-sentabr kuni Urganch davlat universiteti 76 dan ziyod professor-o'qituvchi va xodimlari uchun Antiplagiat tizimini universitetdagi akademik va ilmiy korrupsion xolatlarni kamaytirish uchun tadbqiq etishga qaratilgan onlayn webinar tashkil etildi.



Oy davomida uzluksiz barcha universitetda imzolanib o'tadigan barcha ichki buyruqlar loyihasi o'rganilgan va quyidagi ishlardagi hatoliklar oldi olindi:

1. Malakaviy amaliyot buyruqlarida ko'satilgan ayrim talabalar amaliyot davrida universitetda 0,5 stavka metodist, laborant va boshqa lavozimlarda faoliyat olib borayotganligi aniqlandi. Bir vaqtning o'zida ham ishlayotgan va o'qishdan amaliyotga chiqarilgan talabalarining o'z hisobidan ta'tilga chiqish buyruqlari tayyorlandi.

2. Yangi o'quv yiliga ishga qabul qilinayotgan pedagog, hodimlar va faoliyat olib borayotgan 1000 larning professor-o'qituvchilar va hodimlar Yillik deklarasiyalar to'ldirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvini mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida Arizalar to'ldirilib hodimlar bo'limidagi jildlariga joylashtirilmoqda.

3. Hemis dasturida talabalar davomati va nazorat baholari bo'yicha bir necha holatlar o'rganilib ayrim professor – o'qituvchilarimiz bilan tushuntirish ishlari olib borildi.

4. Oy davomida o'tkazilgan barcha Rektor oldi kengashlarida korrupsiyaga qarshi siyosat va tashkiliy tizim faoliyatini bilan universitet kengashida tanishtirish ishlari olib borilmoqda. Fakultet talabalari bilan o'tkazilgan uchrashuv, tadbirlarimiz universitet saytida va bo'limning bir necha kanallarida yoritilib borilmoqda.

5. Ilmiy faoliyat bo'yicha, bir necha buyruqlarda ixtisoslik kengashlari tarkibini malakaviy imtixonlarda katnashuvchilar ro'yhatida rotatsiya qilish tajribasini amalga oshirdik.

6. 2022 yil iyul-avgust oylari davomida o'tkazilgan bitiruvchi talabalarining "Yakuniy Davlat Imtixonlarning shaffof" o'tkazilganligi haqidagi so'rovnima natijalarining statistic tahlili amalga oshirildi. 2000 dan ziyod bitiruvchi talaba-

respondentlar ovozlari qog‘oz ko‘rinishida bo‘lganligi va ularni maxsus SMAT 5,0 dasturi yordamida o‘qitib aniq natijalarni qayta ishladik. So‘rovnoma natijalari joylarda o‘rganish uchun mas’ul prorektor, dekanlar muhokamasiga taqdim qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat ”
tizimini boshqarish bo‘lim boshlig‘i

X. Shixova